



“Involta” Ilmiy Jurnali

Vebsayt: <https://involta.uz/>

HUDUDLARDA KO’RSATILGAN XIZMATLARNING STATISTIK HISOBI VA ULARNING AHOLI DAROMADLARIGA TA’SIRINI STATISTIK BAHOLASH

Ro’ziev Alisher Ibroimovich

Toshkent moliya instituti katta o’qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada ko’rsatilgan xizmatlarning o’ziga xos xususiyatlari va hududlarida aholi jon boshiga real daromadlarni oshirish maqsadida ko’rsatilgan xizmatlar hajmini ta’sirini statistik tadqiq etilgan.

Аннотация. В данной статье статистически рассматриваются особенности оказываемых услуг и влияние объема оказываемых услуг на увеличение реальных доходов на душу населения в регионах.

Annotation. This article statistically examines the specific features of the services provided and the impact of the volume of services provided in order to increase real per capita income in the regions.

Kalit so’zlar: Ishlab chiqarish, xizmat ko’rsatish, hudud, real daromad, statistik baholash, o’rtacha.

Ключевые слова: производство, услуги, регион, реальный доход, статистическая оценка, средний показатель.

Keywords: Production, services, region, real income, statistical evaluation,

average.

Kirish

Statistikada ko'rsatilgan xizmatlarni, shu jumladan hududlarda ko'rsatiladigan xizmatlarni statistik hisobga olish xizmat ko'rsatish sohasidagi statistik hisobini yanada takomillashtirish va ularning yangi turlarini, shu jumladan shahar va qishloq joylarda ko'rsatiladigan xizmatlarni hisobga olgan holda xizamat ko'rsatish sohasi bozorining holati to'g'risida statistik ma'lumotlarni shakillantirish tartibini belgilashga yordam beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 3 avgustdag'i "O'zbekiston Respublikasining milliy statistika tizimini yanada takomillashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4796-sonli qarori[1] va Prezidentning 2021 yil 11 maydagi "Xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5113-son qarorida [2], hududlarda ko'rsatilgan xizmatlarning statistik hisobini takomillashtirish maqsad qilib olingan.

Buning uchun, ko'rsatiladigan xizmatlar sohasini modernizatsiya va diversifikatsiya qilishni, uning tarkibini zamon talablariga mos holda o'zgartirishni amalga oshirishni optimal tarzda olib borish YaIMda qo'shilgan qiymat hajmini ko'paytirishning muhim omili bo'lib qoladi. hozirgi davrda respublikamiz iqtisodiyotida xizmat ko'rsatish sohalarining ulushi salmoqli ravishda o'sib bormoqda. Xizmat ko'rsatish sohalarining bunday o'sishini bir qator omillar ta'siri bilan izohlash mumkin, jumladan: bozorda yangi-yangi o'nlab turdag'i xizmatlarning paydo bo'lishi, ya'ni kredit kartalari orqali to'lovlar, internet-savdo, yangi savdo-sotiq markazlari, ovqatlanish korxonalari, mehmonxonalar ochish, ta'lim xizmatlarini kengaytirish, dam olish san'ati, turizm va hakozalar.

Adabiyotlar sharhi

Xizmat ko'rsatish sohalarini iqtisodiyotga ta'sirini ilmiy-uslubiy va amaliy jixatlari xorijlik olimlardan P.David, J.Xovkins, Y.Benkler, D.Tapskott, N.Damodar, D.James, J.E.Xanki, M.Drabenstott, D.S.Stoffer, R.X.Dumay, A.G.Maslou, V.A.Kanke, J.S.Batist, B.Frederik, M.Alfred, B.Bagiratha,

D.R.Bahodur, S.Narayan, A.K.Pererava boshqalarning asarlarida o’z aksini topgan.

Adabiyotlarda ko’rsatilgan xizmatlarning hajmiga quydagicha ta’rif berilgan – bu barcha xizmat ko’rsatuvchi provayderlar (yuridik va jismoniy shaxslar) tomonidan xizmatlarni ishlab chiqarishga ixtisoslashgan va xizmatlar ko’rsatish asosiy faoliyat turi bo’lmagan bozor xizmatlarining qiymatidir[3].

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu maqolani tayyorlashda hududlarda ishlab chiqarilgan (ko’rsatiladigan) xizmatlar va aholi jon boshiga real daromadlarni oshirish maqsadida O’zbekiston Respublikasining meyoriy-huhuqiy hujatlaridan, shuningdek xalqaro statistika tashkilotlari, MDh Statistika Qo’mitasining tavsiyalari va tizim ta’riflaridan foydalanilgan.

Taklif va natijalar

Mamlakatimiz hududlarida (AJBRD) aholi jon boshiga real daromadlarni oshirish maqsadida (HBKXH) hududlar ko’rsatilgan xizmatlar hajmini tasirini ko’rib chiqamiz. Buning uchun 2020 yil ma’lumotlaridan foydalanamiz (1-jadval).

1-jadval

Hududlar bo‘yicha ko’rsatilgan xizmatlar hajmi va aholi jon boshiga real umumiyl daromadlar to’risida ma’lumot(2020 yil)¹.

Hududlar	HBKXH-mldr.so‘m	AJBRD ming.so‘m
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	6 520,3	8367,2
Andijon	11 413,0	9559,3
Buxoro	9 843,1	12924,4
Jizzax	5 024,7	9703,6
Qashqadaryo	10 349,5	8999,8

¹ www.stat.uz

Navoiy	5 840,5	17980,6
Namangan	8 928,6	8258,3
Samarqand	14 086,1	9447,4
Surxondaryo	8 013,9	8729,7
Sirdaryo	3 303,0	9663,6
Toshkent	16 438,3	11633,9
Farg'ona	13 694,4	7850,2
Xorazm	6 461,2	10919,5
Toshkent sh.	79 879,3	22080,8

Hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar hajmining o'zgarishi aholi jon boshiga real umumiy daromadlarga ta'sirini statistik baholash.

Ko'rsatkichlarning umumiy xususiyati

obs:	14			
vars:	2			24 Feb 2022 22:15
<hr/>				
variable name	storage type	display format	value label	variable label
HBKXHmlrdsomx	double	%10.0g		HBKXH-mld.so'm (x)
AJBRUDmingsomy	double	%10.0g		AJBRUD ming.so'm (y)

Ko'rsatkichlarning tasviriy statistikasi

Variable	Obs	Mean	Std. Dev.	Min	Max
HBKXHmlrds~x	14	14271.14	19251.95	3303	79879.3
AJBRUDming~y	14	11151.31	4083.58	7850.181	22080.84

Ushbu ma'lumotlarda obekt sifatida Respublikamizdagi 14 ta hududlarda ko'rsatilgan xizmatlar hajmi va aholi jon boshiga real umumiy daromadlar


to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

O'zbekiston Respublikasi hududlarda o'rtacha ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 2020 yilda $\bar{X} = 14271.14$ mld so'mga teng. To'plamni o'rtachadan farqi $\sigma = 19251.95$ mld so'mga teng bo'lgan. Xususan 14 ta hududda ko'rsatilgan xizmatlar hajmi $3303.0 \leq \bar{X} \leq 79879.3$ mld so'm oralig'ida ekanligi aniqlandi.

Ushbu 14 ta hududlarda o'rtacha aholi jon boshiga real umumiylar daromadlar $\bar{X} = 11151.31$ ming so'mga teng. To'plamni o'rtachadan farqi $\sigma = 4083.58$ ming so'mga teng bo'lgan. Xususan 14 ta hududda aholi jon boshiga real umumiylar daromadlar hajmi $7850.18 \leq \bar{X} \leq 22080.84$ ming so'm oralig'ida tashkil etgan.

Hududlarda ko'rsatilgan xizmatlar hajmi va aholi jon boshiga real umumiylar daromadlar o'rtasida qanday bog'lanish borligini bilish maqsadida nuqtali diagrammadan foydalanib aniqlaymiz.

Nuqtali diagramma



Ushbu chizmadan ko'rishimiz mumkunki ko'rsatilgan xizmatlar va jon boshiga real umumiylar daromadlar o'rtasida to'ri chiziqli bo'g'lanish mavjud.

Ko'rsatilgan xizmatlar hajmi va aholi jon boshiga real umumiylar daromadlar o'rtasidagi bog'lanish to'ri chiziqli bo'g'lanishga ega ekanligini aniqlab oldik. Endi bog'lanish kuchini aniqlab olishimiz kerak.

Bu ko'rsatkichni birinchi bo'lib Angliyalik olimlar Golton va Pirsonlar taklif qilishgan. Korrelyatsiya koeffitsienti -1 dan $+1$ gacha oralig'da bo'ladi. Agar korrelyatsiya koeffitsienti manfiy ishora chiqsa, bog'lanish teskari, musbat bo'lsa

to'g'ri chiziqli bog'lanish mavjudligi tan olinadi. Aynan shu xususiyat bilan bu ko'rsatkich boshqa ko'rsatkichlardan farq qiladi va bu uning boshqalardan ustunligidir. Korrelyatsiya koeffitsienti birga yaqinlashib borgan sari bog'lanish kuchi oshib boraveradi va aksincha. Bog'lanish zichligini harakterlovchi ko'rsatkichlarga sifat jihatdan baho berish uchun statistikada Cheddok shkalalari ishlatiladi².

Cheddok shkalalari

Bog'lanish zichligi	0,1-0,3	0,3-0,5	0,5-0,7	0,7-0,9	0,9-0,99
Bog'lanish kuchi	bo'sh	o'rtamiyona	sezilarli	yuqori	juda ham yuqori

Ko'rsatilgan xizmatlar hajmi va aholi jon boshiga real umumiylar daromadlar o'rtaidagi bog'lanish kuchini korrelyatsiya koeffsiyenti orqali aniqlaymiz³.

$$r = \frac{\bar{xy} - \bar{x} \cdot \bar{y}}{\sigma_x \sigma_y};$$

	HBKXHm~x AJBRUD~y
HBKXHmlrds~x	1.0000
AJBRUDming~y	0.7354 1.0000

Demak, hududlarda ko'rsatilgan xizmatlar hajmi va jon boshiga real umumiylar daromadlar o'rtaidagi bog'lanishlarini korrelyatsiya koeffsiyenti orqali aniqlaganimizda, bog'lanish kuchli $r = 0.7354$, bu bog'lanish yuqori to'g'ri chiziqli bog'lanishga ega bo'lib, qanchalik hududlarda ko'rsatilgan xizmatlar hajmini oshirsak jon boshiga real umumiylar daromadlar ham oshib boradi.

Ma'lumki, omil belgi bilan natijaviy belgi o'rtaidagi bog'lanish zichligi birga teng bo'la olmaydi. Agar birga teng bo'lsa, ular o'rtaida korrelyatsion bog'lanish emas, balki funktsional bog'lanish mavjuddir. Agar nolga teng bo'lsa, ular o'rtaida bog'liqlik umuman yo'q.

² Prof Shodiyev X.A., Habibullayev I.H. Statistika. Darslik.-T.: IQTISOD-MOLIYA, 2018. -176 b.

³ Prof Shodiyev X.A., Habibullayev I.H. Statistika bo'yicha Praktikum.-T.: IQTISOD-MOLIYA, 2020. -80 b.

Ko'rsatilgan xizmatlar hajmi va aholi jon boshiga real umumiylar daromadlar o'rtaqidagi to'g'ri chiziqli bog'lanishni baholashda quyidagi regressiya tenglamasi qo'llaniladi:

$$\bar{y}_x = a_0 + a_1 x,$$

bu erda: a_0 -ozod had, a_1 - regressiya tenglamasi koeffitsienti. a_0 va a_1 regressiya tenglamasi parametrlari ham deyishadi. Bu parametrlarni kichik kvadratlar metodi orqali topiladi. Ya'ni $\sum(y - \bar{y}_x)^2 \rightarrow \min$ yoki $\sum(y - a_0 - a_1 x)^2 \rightarrow \min$. Agar a_0 va a_1 parametrlarning har qanday qiymatida ifoda nolga intilsa, a_0 va a_1 parametrlar quyidagi normal tenglamalar sistemasi orqali topiladi⁴:

$$\begin{cases} na_0 + a_1 \sum x = \sum y \\ a_0 \sum x + a_1 \sum x^2 = \sum xy \end{cases}$$

Source	SS	df	MS	Number of obs	=	14
Model	117239602	1	117239602	F(1, 12)	=	14.13
Residual	99543581.4	12	8295298.45	Prob > F	=	0.0027
				R-squared	=	0.5408
				Adj R-squared	=	0.5025
Total	216783184	13	16675629.5	Root MSE	=	2880.2
<hr/>						
AJBRUDmings~y	Coef.	Std. Err.	t	P> t	[95% Conf.	Interval]
HBKXHmlrdsomx_cons	.1559878 8925.184	.0414925 971.1628	3.76 9.19	0.003 0.000	.0655835 6809.202	.2463922 11041.17

$$\bar{y}_x = 0.155 + 8925.2x$$

Xulosa va takliflar

Xulosa qilganda, mamlakatda xizmatlar ko'rsatish sohasini rivojlantirish ayniqsa, hududlarda ko'rsatilayotgan xizmatlarning turini kengaytirish hamda sifatini yaxshilash uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

⁴ Prof Shodiyev X.A., Habibullayev I.H. Statistika bo'yicha Praktikum.-T.: IQTISOD-MOLIYA, 2020. -78 b.

- 2022-2026-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning Taraqqiyot strategiyasida ko'rsatilganidek, yalpi ichki mahsulotni shakllantirishda xizmatlarning o'rni va ulushini oshirish, ko'rsatilayotgan xizmatlar tarkibini zamonaviy yuqori texnologik turlari isobiga tubdan o'zgartirishga erishish;
- qishloq aholi punktlarida xizmat ko'rsatish korxonalarini rivojlantirish, birinchi navbatda kommunal-maishiy, uy-joylarni ta'mirlash va qurish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tayyorlash;
- har bir hududning xususiyatlaridan kelib chiqib, xizmat ko'rsatish sohalarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik hissasining ulushi oshib borishiga erishish maqsadida shart-sharoitlar yaratish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 3 avgustdag'i "O'zbekiston Respublikasining milliy statistika tizimini yanada takomillashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4796-sonli qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 11 maydag'i "Xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to]g'risida"gi PQ-5113-son qarori.
3. Qoraboev A.R, G'oyibnazarov B.K, Rashitova N.X. "Milliy hisoblar tizimi" darslik. Toshkent "IQTISOD-MOLIYA" 2015y. 129b
4. Prof Shodiyev X.A., Habibullayev I.H. Statistika. Darslik.-T.: IQTISOD-MOLIYA, 2018. -176 b.
5. Prof Shodiyev X.A., Habibullayev I.H. Statistika bo'yicha Praktikum.-T.: IQTISOD-MOLIYA, 2020. -80 b.
6. www.stat.uz